

Risolai Tiyr Andoxtan[1]

Bismillahir-Rahmonir-Rahim

Alhamdu lillohi rabbil olamin vas-salavot-us-sallam alo rasulihi Muhammadi va olihi ajmain[2].

"Har kim tark qilsa tiyrandozliqni o'grig'ondin so'ng bas tark qilmish bo'lg'ay mening sunnatimni, ul mendin emas".

Ammo xabarda andoq keltirurkim, chun Hazrati Odam Safiy[3] (salavotu lillohi alayhi) dunyoga kelgondin so'ng Xudoyi taolo aning gunohin bag'ishladi. Ersa Jabroil[4] (alayhissalom)ga amr bo'dikim, Odamg'a dexqonchilikni o'grotgil. Jabroil (a. s.) kelib aydi: Yo Odam, Xudoyi taolo sanga aydi, andin so'ng amr qildikim, dehqonchiliq qilsun. Chun Odam (a s) bu payg'omni eshitti, ersa qabul qildi. Va Jabroil (a. s.) urug' olib keldi va Odam (a. s.) sochti va yerni mola qildi. Qazog'a qarg'alar kelib, ekkan bug'doyni kovlab olib yeya boshladi. Odam (a. s.) andoq ko'rub, munojot qilib aydikim: Ilohi, mening, ekkanimni zoye' qilmagil. Bas, Xudoyi taolo Jabroil (a. s.) din Odami Safiyg'a bir yoy va necha o'q yibordi. Chun Odamg'a o'q otmoqni o'grotti. Andin sung buyurdikim, Odam bu o'jni qarg'alar sari otgil. Bas, Odam (a. s.) otti va xato qildi. Jabroil tabassum qilib aytdi: Yana bir o'q otg'il. Bu kezikda otgan urdi. Jabroil (a. s.) shodmon bo'ldi. Odam (a. s.) so'rdikim: Ey Jabroil, avval otqonimda nega tabassum kilding va so'ng otqonimda nega shodmon buldung? Jabroil (a. s.) aydi: Ul tabassum aning uchun qildim va so'ng shodmon bo'lдумkim, agar avvalgi o'qung qarg'alarg'a tegsa erdi farzandlarining ilgidin qiyomatqacha hech nimarsa xalos bo'lmag'ay erdi. Va yana bilgilkim, o'q otmoq Xudoyi taolonning lutfi erur va Odami Safiyning mo'jizasidur. Bilgilkim, o'q otmoqliqning savobi bisyordur. Ammo andoq bayon qiloli to sizga ma'lum bo'lg'ay.

Xabarda andoq keltirurkim, Payg'ambar (a.s.) o'q otmoqning fazilatin bisyor etti. Ersa sahabalar (rizvon allohi taolo alayhim ajmain) taajjub qilib so'rdilarkim: Yo Rasululloh, tiyrandozliqning savobi ne miqdordur? Rasululloh (s. a. v.) buyurdikim: Agar tiyrandozliqni biyik savobin aytasam xalq kasbu tijoratidin qolg'aylar. Va o'q otmoqdin o'zga ish qilmag'aylar. Ammo bir soat o'q otmoq savobi bilan ellik yilg'i toatning savobi barobar turur. Va Rasul (a. s.) aydikim: Har mo'minkim, nishonag'a o'q otsa Xudoyi taolo anga behishtiyalar savobin bergay va agar nishonga tegsa, behishtning eshilkin anga ochib, hurni anga aqd qilg'ay. Andoq rivoyat qilurkim, Pang'ambar (a. s.) sahabalar birla bir kun borur erdilar. Sa'di Vaqqos[5] farzandlarig'a o'q otmoq o'grotur erdi. Hazrati Payg'ambar (a. s.) zamone nishonagohga boqib turdilar. Bayakbor bir yigit paydo bo'ldi, ilgida o'q va yoy. Bu yigit kelib bir o'q otti, ersa Payg'ambar (a. s.) base shodmon bo'ldi. Andin so'ng sahabalar (r. a. a.) so'rdilarkim: Yo Payg'ambari Xudo, ne sababqa shodmon bo'ldingiz?

Payg'ambar (a. s.) aydilarkim: Ul sababdin shodmon bo'lдум: ul yigit kelur erdi g'arqi gunoh erdi. Chun o'q otti, ersa barcha gunohlaridan pok bo'ldi va gunohlari to'kuldi.

Xabarda andoqdururkim, Payg'ambar (a. s.) buyurdi, har yernikim, masjid qilur bo'lsalar qirq yil burun faxr qilur ermishkim, meni masjid qiladurlar. Va har yerdakim, o'q otar bo'lsalar sakson yil burun faxr va mubohot qilur ermishkim, meni nishonagoh qilib, bir kun o'q otganlar.

Amir ul-mo'minin Ali[6] (karamallohu vajhuhi) goho o'q keltirur erdi, bosh va oyog'larni yolang qilib, durud aytur erdi. Bir kun Sa'di Vaqqos o'q otar erdikim, Jabroil (a. s.) keldi va Hazrati Payg'ambar a. s.) Sa'di Vaqqos birla turub erdilar, Payg'ambar (a. s.) aydilar: Ey Sa'di Vaqqos, mening uchun bir o'q otgil. Va Jabroil (a. s.) aydi: Yo Rasululloh, Sa'di Vaqqosg'a aytg'il mening uchun ham bir o'q otsun. Chun Vaqqos bu ikki o'jni otmoqdin so'ng Payg'ambar (a. s.) aydi: Bir o'q Xudoyi taolonning nomi uchun otgil. Sa'di Vaqqos yana bir o'q otti. Andin so'ng sahabalar (r. a. a.) borib, nishonagohdin o'qlarni kelturdilar. Ammo ul o'qkim, Xudoyi subhonahu taolo oti uchun otib erdilar, topmadilar. Jabroil (a. s.) kelib aydi: yo Muhammad, Xudoyi taolo aydikim, ul o'jni topmasunlar, aning uchunkim, ul behishtda Sa'di Vaqqosqa yer olib anda turdi.

Manquldurkim, Shayx Shafiqi Balxiy[7] (r. t. a.) naz' holinda qo'pub o'q-yoy kelturub, bir necha o'q otti, ersa yoronlari ko'rub shodmon bo'ldilarkim, Shayxning ahvoli yaxshidur. Shayx (q. s.) aydikim: Ey yoronlar, bilinglarkim, mening holim oxir bo'lubtur. Ammo andoq xayol qildimkim, bir toat qilayin va hech toat bu mahalda o'q otmoqdin behrok ko'rmadim. Bilgilkim, o'q otmoq savobi ko'p va mas'alasi bisyordur. Ammo muxtasar qilduk. Bo ehtirom anjomid, ba itmom rasid in nusxai sharif dar dasti bandai zaif Fatxulloh al-kotib.

Б†‘ Alisher Navoiyga nisbat berilgan (Qarang: Bertel's Ye. E-Navoi. M.; L., 1948; Semenov A. A. Navoiy qo'lyozmalari tavsifi. Toshkent, 1940) bu g'oyat kichik asar ashtarxoniylardan Abdulazizzon (1645-1680) kitobxonasiiga mansub bir majmua tarkibida mavjud, deyiladi. Ushbu satrlar muallifining Urfon Otajon bilan hammualliflikda yozgan maqolasida risolaning mazmun va mohiyati yoritilar ekan, uning Navoiy qalamiga mansubligi haqida ba'zi dalil va mulohazalar bildiriladi (Qarang: "Tafakkur" jurnali. 1995 y. 3/4-son. 120-124-betlar).

Б†‘ Tarj. a.: Butun olimlarning parvardigoriga hamdu sanolar bo'lsin, Ollohnning rasuli va uning oila a'zolariga duoil salomlar bo'lsin!

Б†‘ Odam Olloh yaratgan birinchi inson. "Abulbashar" kunyasi, "Safiulloh" (Ollohnning sof quli) laqabi. Xalqda Odam Ota deb yuritiladi. Bu yerda Odam jannatdan quvilgach. Olloh unga dehqonchilik qilishni, bug'doy ekishni buyurgani haqida so'z ketadi.

Б†‘ Jabroil Olloh bilan payg'ambar o'rtasidagi vositachi, vahiy keltiruvchi to'rt farishtaning biri. Uning "Ruh ul-amin" laqabi bor.

Б†‘ Sa'di Vaqqos Muhammad payg'ambar sahabalaridan biri.

Б†‘ Amir al-mo'minin Aln ibn Abu Tolnb (661 yilda qatl qilingan). Islomda "Xulafo ar-roshidin" (to'g'ri yo'lidan boruvchi xalifalar), xalq orasida "choryorlar" deb ataluvchi to'rt xalifaning to'rtinchisi, Muhammad payg'ambarning kuyovi va amakivachchasi. Islomdagagi ikki asosiy oqimdan biri "shia" (arabcha "guruh" demakdir)ni Ali tashkil qilgan. "Amir al-mo'minin" Hazrat Alining laqabidir. Navoiy Hazrat Alining "Nasr ul-laoliy" (nasriy gavharlar) nomli asarida jam'langan hikmatlarining har birini bir ruboysiда talqin qilgan (268 ta) va asariga "Nazm ul-javohir" (nazmiy-she'rlar javharlar) deb nom bergan. Adabiyotda Ali ajoyib sarkarda va jasur shaxs sifatida ta'rif qilinadi.

This is not registered version of TotalDocConverter  
B† Shafiqi Balxiy nashriyotida xarorat. Farzandim Afor Ibrohim Adham tariqatini olgan edi, deb yozadi ("Tazkirat ul-avliyo", 232-6.). Shafiqi Balxiy 174/790 791 yilda. Movarounnahrda dunyodan o'tgan.